

KOREYS TILIDAGI FONOLOGIK O'ZGARISHLARNING SINXRONIK TAHLILI: QATTIQLASHISH HODISASI (경음화)

Nosirova N.O.

*Samarqand davlat chet tillari instituti,
Koreys filologiyasi kafedrası o'qituvchisi
nigoranosirova0702@gmail.com*

Annotatsiya. Ushbu maqolada koreys tilidagi fonologik o'zgarishlar sinxronik nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Asosiy e'tibor qattiqlashish hodisasiga qaratilib, uning yuzaga kelish sabablari va qo'llanish holatlari ko'rib chiqiladi. Mazkur hodisa talaffuz tizimining muhim jihati sifatida izohlanadi hamda til o'rganishda ahamiyati yoritiladi va amaliy misollar bilan mustahkamlanadi.

Kalit so'zlar: koreys tili, fonologiya, fonologik o'zgarishlar, sinxronik tahlil, qattiqlashish hodisasi, 경음화, undosh tovushlar, qattiq undoshlar (tens), assimilatsiya, regressiv assimilatsiya, morfologik chegaralar, fonetik muhit, talaffuz xususiyatlari, artikulyatsiya, koreys tilida talaffuz.

Abstract. This article analyzes phonological changes in the Korean language from a synchronic perspective. The main focus is on the phenomenon of consonant fortition, examining its causes and patterns of usage. This phenomenon is interpreted as an important aspect of the pronunciation system, and its significance in language learning is highlighted and supported with practical examples.

Keywords: Korean language, phonology, phonological changes, synchronic analysis, tensification, 경음화 (tensification), consonant sounds, tense consonants, assimilation, regressive assimilation, morphological boundaries, phonetic environment, pronunciation features, articulation, pronunciation in Korean.

Kirish. Tilshunoslikda fonologik o'zgarishlar til tizimining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Ular nutq jarayonida tovushlarning o'zaro ta'siri natijasida yuzaga keladi. Koreys tili fonologiyasi o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, unda turli assimilatsiya hodisalari keng tarqalgan. Shunday hodisalardan biri — qattiqlashish hodisasi (경음화, gyeong-eumhwa) bo'lib, undosh tovushlarning kuchayishi bilan xarakterlanadi. Ushbu maqolada mazkur hodisa sinxronik nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Koreys tilida ushbu hodisani mukammal o'rgangan tilshunos olimlardan biri 허웅 zamonaviy koreys tilshunosligiga ham o'z hissasini qo'shgan. U koreys fonologiyasi, jumladan 경음화 (qattiqlashish) hodisasini tizimli ravishda tahlil qilgan.

이기문 koreys tili tarixi va fonologiyasini chuqur o‘rgangan. Uning ishlarida fonologik o‘zgarishlarning sinxron va diaxron jihatlari, shu jumladan qattiqlashish ham izohlangan. 김완진 koreys fonetikasi va fonologiyasi bo‘yicha tadqiqotlar olib borgan, ayniqsa tovush o‘zgarishlari (assimilyatsiya, tensifikatsiya) ustida ishlagan. 신지영 – zamonaviy fonologiya nuqtai nazaridan koreys tilidagi tovush jarayonlarini, jumladan 된소리되기(qattiqlashish) ni eksperimental va nazariy jihatdan tahlil qilgan.

Asosiy qism. Koreys tilida qattiqlashish hodisasining mohiyati quyidagilardan iborat: Koreys tilida undoshlar uch asosiy turga bo‘linadi:

- Oddiy (yumshoq) undoshlar: ㄱ, ㄴ, ㄷ, ㄹ, ㅂ, ㅅ
- Qattiq (tens) undoshlar: ㄲ, ㄴㄹ, ㄸ, ㄷㄹ, ㅃ, ㅆ
- Nafasli (aspiratsiyalangan) undoshlar: ㅋ, ㆁ, ㆁ, ㅌ, ㅍ

Qattiqlashish hodisasi oddiy undoshlarning muayyan fonetik sharoitda qattiq undoshlarga aylanishidir. Bu jarayon ko‘pincha undoshlar ketma-ket kelganda yoki morfemalar tutashgan joyda yuz beradi.

Misollar:

국밥 [국빔], 학교 [학꾜]

Koreys tilidagi qattiqlashish hodisasining yuzaga kelish sharoitlarini quyidagicha sharhlash mumkin. 1. Bir undoshdan keyin yana bir undosh kelganda, ikkinchisi qattiqlashadi: 입구[입꾸], 식당 [식땅] kabi. 2. Morfologik chegarada so‘z yasash yoki qo‘shimcha qo‘shilish jarayonida qattiqlashish yuz beradi: 국 + 수 [국쑤], 옷 + 고 [올꼬]. 3. Sintaktik birikmalarda ba’zi so‘z birikmalarida ham kuzatiladi: 첫사랑[첼싸랑], 낮잠 → [날잠].

Koreys tilidagi qattiqlashish hodisasining fonologik xususiyatlari ham mavjuda bo‘lib, ular quyigalardir: Qattiqlashish quyidagi belgilar bilan ajralib turadi:

- Kuchli artikulyatsiya
- Qisqa va keskin talaffuz
- Fonematik farqlanish imkoniyati

Misollar:

달(oy) — 딸(qiz), 불 (olov) — 뿔 (shox)

Qattiqlashish va assimilatsiya. Qattiqlashish regressiv assimilatsiya turiga kiradi. Ya'ni oldingi tovush keyingisiga ta'sir qiladi. Bu jarayon fonetik qulaylik va nutq tezligi bilan bog'liq.

Qattiqlash (경음화, gyeongumhwa – Tensification yoki Fortition).

Bu hodisada patchimdan keyin keladigan oddiy (kuchsiz) portlovchi yoki sızıq tovushlari (ㄱ, ㄷ, ㅂ, ㅅ, ㅈ) qattiq (kuchli) tovushlarga (ㄲ, ㄸ, ㅃ, ㅆ, ㅉ) aylanadi. Bu o'zgarish faqat patchim ㄱ, ㄷ, ㅂ, ㅅ, ㅈ dan biri bo'lganda sodir bo'ladi. Fonetik sabab – oldingi patchimning to'liq yopilishi keyingi tovushning boshlanishida qo'shimcha mushak tarangligini talab qilishi mumkin, bu esa qattiq tovushni keltirib chiqaradi.

Misol va tafsilotlar:

1. ㄱ, ㅋ, (patchim) + ㄱ, ㄷ, ㅂ, ㅅ, ㅈ → ㄲ, ㄸ, ㅃ, ㅆ, ㅉ

‘학교’ [hakgyo] emas, ‘학교’ [hakkkyo] (“maktab”). (ㄱ + ㄱ → ㄲ)

‘옆집’ [yeopjip] emas, ‘옆ㅈㅈ’ [yeopjjjip] (“qo'shni uy”). (ㅂ + ㅈ → ㅉ)¹

2. ㅁ, ㄴ, ㅇ, ㄹ (patchim) + ㄱ, ㄷ, ㅂ, ㅅ, ㅈ → ㄲ, ㄸ, ㅃ, ㅆ, ㅉ

‘한국’ [Han-guk] – bu yerda qattiqlash yo'q, chunki keyingi ㄱ so'z boshida.

‘신다’ [sinda] (“kiymoq”) – bu yerda qattiqlash yo'q. Lekin 1) 신고 (신ㅈ고), 2) 신고 (신ㅈ고) bunda 1)dagi 신고 “신다” fe;lining +고 qo'shimchasi qo'shilgandagi shakli bo'lganida qattiqlashish hodisasi yuz berib, 2) da esa 신고 ot so'z turkumi bo'lganligi sababli 경음화 hodisasi yuz bermaydi.

Misollar bilan ko'ramiz:

이거 신고 가세요. (이거 신ㅈ고 가세요)

다음부터는 신고 할 거야. (다음부터는 신ㅈ고 할꺼야)

Ammo ‘할 것’ [hal geot] emas, ‘할 꺼’ [hal kkeot] (“qiladi”). Bu keng tarqalgan noto'g'ri talaffuz emas, balki rasmiy qoidadir (ㄹ + ㄱ → ㄲ).

‘았다’ [anjda] (“o'tirmoq”) so'zi aslida ‘안따’ [anttta] deb talaffuz qilinadi, bu yerda ㅈ ning ㄷ ga o'zgarishi (portlash) va keyin ㄴ patchimidan keyin kelganligi sababli

¹ Sohn, H.-M. (2001). “The Korean Language”. Cambridge University Press. P-145

ㄷ ga qattiqlashgan (ㄴ + ㅈ → ㄸ → ㄸ). Bu ikki qoidaning o‘zaro ta’sirining murakkab holatidir.

Xulosa. Koreys tilidagi qattiqlashish hodisasi fonologik tizimning muhim qismi bo‘lib, undoshlarning kuchayishi orqali yuzaga keladi. U asosan undoshlar o‘zaro ta’siri, morfologik chegaralar va sintaktik birikmalar natijasida paydo bo‘ladi. Ushbu hodisani sinxronik o‘rganish tilning zamonaviy ishlash mexanizmini tushunishda katta ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADADBIYOTLAR

1. Celce-Murcia, M., Brinton, D. M., & Goodwin, J. M. (2010). “Teaching Pronunciation: A Course Book and Reference Guide (2nd ed.)”. Cambridge University Press.
2. Cho, S. (2017). “Korean Phonetics and Phonology”. Hankookmunhwasa. P-178.
3. Darcy, I., Ewert, D., & Lidster, R. (2012). “Bringing pronunciation instruction back into the classroom: An ESL teachers’ pronunciation “toolbox”. P-93-108.
4. Gilakjani, A. P. (2012). “The significance of pronunciation in English language teaching”. English Language Teaching. P-96-107.
5. Nosirova N. (2026). Koreys tilida salbiy natijali sabab-oqibat ma’nosini ifodalovchi grammatik vositalarning semantik tahlili (–아서/어서, –기 때문에, –느라고 중심으로). Sharq filologiyasi jurnali, 5(07), 448–454.
6. Nosirova N. (2025). Koreys tilida zoonomik komponentli iboralarning inson qiyofasini ifodalashdagi o‘rni. Sharq filologiya jurnali, 5(06), 90–95.